



NAVOIY VILOYATI NUROTA TUMANI HOKIMI QARORI

210700, Nurota t., Islom Karimov sh. k 48, tel: (79)523-13-42, nurota@nv.uz

2023 - yil 25 - mart

41-5-74-Q/23

Nurota tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-fevraldagi “2023-2024-yillarda Navoiy viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-52-sonli va viloyat hokimining 2023-yil 20-fevraldagi 14-5-0-Q/23-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida.

Tumanda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, bo‘sh turgan davlat aktivlari, mavjud tabiiy resurslar zahiralari, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar toifasidagi yer maydonlari va suv resurslaridan samarali foydalanish, muhandislik-kommunikatsiya, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish inforatuzilmasini rivojlantirish hamda investitsiyalarni jalb qilish hisobiga qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish, yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi daromadlarini oshirish orqali tumanni “kambag‘allik va ishsizlikdan holi hudud”ga aylantirish maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25, 27-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-fevraldagi “2023-2024-yillarda Navoiy viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-52-sonli va viloyat hokimining 2023-yil 20-fevraldagi 14-5-0-Q/23-sonli qarorlari ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan quyidagilar:

Navoiy viloyatini kompleks rivojlantirish yuzasidan 2023-yilda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasi;

2023-yilda Navoiy viloyati aholisi bandligini ta‘minlash bo‘yicha tarmoqlar va sohalar kesimida reja-grafik;

muhandislik-kommunikatsiya, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarning manzilli ro'yxati;

ijtimoiy soha obyektlarining infratuzilmasi va moddiy-texnika bazasini yaxshilash bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarning manzilli ro'yxati;

irrigatsiya va melioratsiya obyektlarini rekonstruksiya qilish va ta'mirlash-tiklash tadbirlarining manzilli ro'yxati;

qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish va xomashyo zahiralari chuqur qayta ishlashni yo'lga qo'yish maqsadida 2023-yilda investitsiya majburiyati bilan auksion savdolariga chiqariladigan zahiralarga ega yer qari uchastkalari ro'yxati;

2023-yilda sanoat, hunarmandchilik, kasanachilik, chorvachilik, savdo va xizmat ko'rsatish yo'nalishlarida tashkil etiladigan mikromarkazlarning manzilli ro'yxati;

2023-2024-yillarda yangi tashkil etiladigan va mavjud kichik sanoat zonalarini muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi bilan ta'minlash tadbirlarining manzilli dasturi;

ommaviy savdolarga chiqarilib, uzoq muddatdan buyon sotilmay turgan, boshlang'ich qiymatini 50 foizgacha qadam-baqadam pasaytirish mexanizmi qo'llaniladigan davlat aktivlari ro'yxati;

qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalari qisqarib ketishining oldini olish maqsadida foydalanishdan chiqib ketgan yer maydonlarini 2023-yilda qayta foydalanishga kiritishning maqsadli ko'rsatkichlari;

2023-yilda yerlarni foydalanishga kiritish bo'yicha amalga oshiriladigan yo'nalishlar;

yaylovlar va suv ta'minoti og'ir bo'lgan yer maydonlaridan samarali foydalanishni tashkil etishning manzilli ro'yxati tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan Vazirlar Mahkamasi, Navoiy viloyat hokimligi, Qishloq xo'jalik vazirligi, Tabiat resurslari vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining Navoiy viloyati tumanlarida kichik sanoat zonalarini, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish komplekslari va boshqa sanoat obyektlarini barpo etish maqsadida qarorning 12-ilovasiga muvofiq zaxira yerlari hisoblangan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sug'oriladigan yerlarni qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar toifasidan sanoat, transport, aloqa, mudofa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar toifasiga o'tkazish to'g'risidagi taklifi maqullanganligi inobatga olinsin.

4. Kadastr agentligi (R.Safarov) qishloq xo'jaligi bo'limi (A.Allayev) bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqoridagi qarori 12-ilovasida belgilangan yer uchastkalarining yer fondi toifasi o'zgartirilishi munosabati bilan yer resurslarining holati to'g'risidagi milliy hisobotga tegishli o'zgartirishlar kiritish bo'yicha o'rnatilgan tartibda takliflar kiritsin.

5. Tuman hokimi o'rinbosari (F.Yodgorov), Kadastr agentligi (R.Safarov), qishloq xo'jaligi bo'limi (A.Allayev)lar bilan birgalikda:

yer uchastkalarining yer fondi toifasi o'zgartirilishi natijasida qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi ishlab chiqarilishi nobudgarchiligining o'rni belgilangan tartibda qoplanishini;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorning 12-ilovasiga muvofiq, toifasi o‘zgartirilgan yer uchastkalari belgilangan tartibda realizatsiya qilinishini ta‘minlasin.

6. Tuman hokimi o‘rinbosari F.Yodgorov:

tumanda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalari qisqarib ketishining oldini olish maqsadida foydalanishdan chiqib ketgan yer maydonini 2023-yilda to‘liq qayta foydalanishga kiritilishini;

2023-yilda tumanda foydalanishga kiritiladigan yer maydonlari va ulardan samarali foydalanilishini;

tuman hududidagi yaylovlar va suv ta‘minoti og‘ir bo‘lgan yer maydonlaridan samarali foydalanishni tashkil etish choralari ko‘rish;

tumanda suv tejovchi texnologiyalarning joriy qilinishi, lazerli tekislash tadbirlarining amalga oshirilishi hamda foydalanishdan chiqib ketgan yer maydonlarining qayta foydalanishga kiritilishini nazoratga olish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-sentyabrdagi “Dehqon xo‘jaliklari tashkil etishni qo‘llab-quvvatlash orqali aholi daromadlarini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-373-sonli qaroriga muvofiq 2023-yilda fermer xo‘jaliklari va klasterlar foydalanishidagi g‘alladan qisqartirilgan hamda aholi punktlariga yaqin va suv ta‘minoti yaxshi bo‘lgan ekin maydonlarini aholiga ochiq elektron tanlov orqali ijaraga berilishini ta‘minlasin.

7. Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi (H.Qarshiboyev), tuman bandlik bo‘limi, qishloq xo‘jalik bo‘limi bilan birgalikda:

Qishloq xo‘jaligi ekinlari ekin maydonlarida “Bir hudud bir mahsulot” tamoyili asosida mahallalarning ixtisoslashuvidan kelib chiqqan holda ekilishini;

2023-yilda aholiga ochiq elektron tanlov orqali ijaraga beriladigan yer maydonlarida ekinlarni ekish va hosil olish hisobining yuritilishini;

Dehqon xo‘jaliklariga ilg‘or texnologiyalardan foydalanish hamda dehqonchilikda samarali natijalarga erishishda ko‘maklashish va o‘quv seminarlari tashkil etilishini;

Qishloq xo‘jaligi kooperativiga a‘zo bo‘lgan yer egalariga sug‘orish vositalarini xarid qilish, urug‘liklar va ko‘chatlar sotib olish uchun subsidiyalar ajratilishini ta‘minlasin.

8. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Bo‘riyev), tijorat banklari bilan birgalikda:

oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi loyihasida ajratilgan kredit resurslarini to‘liq o‘zlashtirish choralari ko‘rish;

issiqxona tarmog‘i keng rivojlangan dehqon xo‘jaliklariga ajratib berilgan ekin maydonlarida isitish tizimlarini o‘rnatmasdan yengil konstruksiyali issiqxonalar qurilishiga imtiyozli kredit mablag‘larining ajratilishini ta‘minlasin.

9. Tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi (A.Allayev) Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi (H.Qarshiboyev) bilan birgalikda 2023-yil 1-iyunga qadar tumanda 2023-yilda aholiga yangi dehqon xo‘jaliklari tashkil qilish uchun ochiq elektron tanlov orqali ijaraga berilib, yer uchastkasiga ijara huquqi davlat

ro'yxatidan o'tkazilgan ekin yerlari to'g'risida viloyat hokimligiga axborot kiritilishi ta'minlansin.

10. Tuman Aholi bandligiga ko'maklashish markazi Nurota kasb-hunarga o'qitish markazining bo'sh turgan qismida Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga ajratilgan mablag'lar doirasida monomarkaz tashkil etib, xorijiy mutaxassislarni jalb qilish va yoshlarni zamonaviy kasb-hunarga o'qitish choralari ko'rsin.

11. Tuman hokimligi matbuot kotibi (L.Mansurov) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori mazmun-mohiyati hamda maqsad va vazifalarining ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borilishini ta'minlasin.

12. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

Tuman hokimi



A.Fayziyev